



## KO'ZNING YUQUMLI KASALLIKLARI VA ULARNING OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI DAVOLASH USULLARI

*Ilmiy rahbar: Assistant*  
**Atabayev Atabek Farxadovich**  
*Ilmiy rahbar: Azimboyeva*  
**Zarnigor Qudratovna**

*Talaba:*  
**Abatova Sapura Yaxshimuratovna**  
*Urganch davlat tibbiyot instituti*  
*Davolash ishi yo'nalishi 221-B*  
*gruh*  
*+998907340417*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ko'zning o'ta yuqumli kasalliklari haqida malumot berilgan. Maqola yozilishidan maqsad ko'zning yuqumli kasalliklar haqida insonlarga malimot berish va bu kasallik oldini olish chora tadbirlarini kuchaytrish insonlarga sog'lom turmish tarzini targ'ib qilishdir. Maqolada ko'z yuqumli kasalliklari O'tkir kon'yunktivitlar, Difteriya kon'yunktiviti, Adenovirusli kon'yunktivit, yuqush yo'llari va ularning profilaktika chora tadbirlari va davolanishi haqida malumotlar berilgan.

**Аннотация.** В этой статье представлена информация о высокоинфекционных заболеваниях глаз. Целью написания статьи является информирование людей о глазных инфекциях и усиление мер по профилактике этого заболевания, чтобы способствовать здоровому образу жизни людей. В статье представлена информация о глазных инфекциях - остром конъюнктивите, дифтерийном конъюнктивите, аденовирусном конъюнктивите, путях передачи и мерах их профилактики и лечения.

**Annotation.** This article provides information on highly infectious diseases of the eye. The purpose of writing the article is to give malimot to people about infectious diseases of the eye and to strengthen measures to prevent this disease is to promote a healthy lifestyle for people. The article provides



information on eye infections acute conjunctivitis, diphtheria conjunctivitis, adenovirus conjunctivitis, transmission routes and their preventive measures and treatment.

### **Ko'zning yuqumli kasalliklari va ularning oldini olish chora tadbirlari davolash usullari**

**Kon'yunktiva** - Ko'z shilliq pardasi kon'yunktivadir. Bu parda pastki va yuqori qovoqlarning ichki sathini berkitib, yopshib yotadi. U qovoqlarning kiprikli qirasidan boshlanadi u uch qisimdan iborat. Qovoq qisimi va o'tuvchi burmali hamda ko'z soqqasi sathini berkituvchi qisim.

**Kon'yunktivaning yallig'lanishi**- Qovoqlar shilliq pardasi kon'yunktivaning yallig'lanishi kon'yunktivit (Conjunctivitis) deyiladi. Ular o'tkir va surunkali bo'ladi. Bu kasallikda bemor o'z ko'zida sanchiq sezadi, ko'zlarida yot jisim tushgani kabi sezgi bo'ladi. Ko'z yoshlanishi va qovoq qirasining yopishuvi kabi noqulayliklarni sezadilar. Bu kasallikda ko'pincha ko'z soqqasi kon'yunktivasining qon tomirlari kengayadi. Bu kon'yunktival infeksiya deb ataladi. Mikroblar viruslar va allergiya ta'siridan paydo bo'ladigan kon'yunktivitlar ham bor.

**O'tkir kon'yunktivitlar** - O'tkir epidemik kon'yunktivitni Kox va Uiks diplobatsillasi vujudga keltiradi. Bu kasallik Markaziy Osiyo va tropik iqlimli yerlarda uchraydi. Bizning iqlimda esa ko'pincha aprel-may oylaridan boshlanib, orada ancha kamayadi va yana avgust-sentyabrda yana paydo bo'la boshlaydi.

**Kelib chiqish sabablari:** Juda issiq havoda terlash, chang vaqtida qo'l yuvmaslik, umumiy yostiq va sochiqlardan foydalanish orqali yuqadi. Ko'pincha bolalar va qariyalar kasallanishi mumkin. Bu konyunktivit aval bir ko'zda boshlanib keyin tezgina ikkinchi ko'zga o'tadi.

Kasallikning asosiy klinik belgilari



1. Shilliq parda juda qizarib, shishib, qalinlashadi. Ko'z soqqasi kon'yuktivasi ham shishib ketadi. Ikkala qovoq orasi qisilganda uning qon tomirlari torayib rangi oqaradi. Bunda shox pardadan burun va quloq tomonda u ikkita rangi oqargan uchburchak sifatida ko'rinadi. Ikkinchi simptomi 10-12 soatdan so'ng ko'zdan juda ko'p quyruq yiring chiqa boshlaydi va uchinchi simptomi ko'z yuqori segmenti kon'yuktivasi ustida mayda-mayda qon quyiladi. Qovoqlar ham shishadi. Bemor organizimi quvatsiz bo'lsa, uning umumiy ahvoli og'irlashadi isitmasi ko'tariladi.

2. Bemor o'z vaqtida davolanmasa kasallik 2-4 haftagacha chozlib ketsa bemor ko'zi shox pardasi zararlanib yarali asoratini berib, ko'rlikga olib kelishi mumkin. Bemor batsilla tashuvchi bo'lib qolishi mumkin.

**Gonoblenoreya** - ko'pincha chaqaloqlarda uchraydi . Chaqaloqlar tug'ilish paytida kasal onadan Neisser gonokokkini yuqtiradi va 2-3 kundan so'ng uning ko'zi qizaradi, qovoqlari qattiq shishadi va ko'zidan qizg'ish yuvundi (go'sht ivindisiga o'xshash ) suyuqlik chiqa boshlaydi. Qovoqlari qattiq shishgan, ko'kimtir tus oladi. Juda taranglashib ochilmay qoladi. Ularning ikkala ko'z shilliq pardasi qizarib shishadi va tez qonaydigan bo'ladi. Bu vaqtda chaqaloqlar ahvoli juda og'ir bo'ladi, isitmasi baland,emmaydi,uxlamay g'ingshib chiqadi. 3-4 kundan keyin qovoq shishi kamayib, yumshaydi va ular salqib qoladi. Ko'zdan juda ko'b miqdorda sarg'ish quyruq yiring chiqaveradi. Bazida bu shish shox parda uchun xafli bo'ladi. Unda moddalar almashinuvi buziladi, epiteliysi yiring bilan tiralib xiralanadi yaralanish ham kuzatilishi mumkin. Bu yara bitib tuzalgan taqdirda ham shox pardada chandiqlik paydo bo'ladi. Ko'z ko'rmay qoladi yoki uning o'rtasida paydo bo'ladigan sariq yiringli yara yorilib, infeksiya ko'zning ichiga kiradi. Bunda ichki pardalar yallig'lanib, endoftalmit, panoftalmitga aylanishi mumkun. Bu kasallik katta odamlarning ko'ziga gigiyenaga amal qilmaslik oqibatida yuqtiriladi. Ko'pincha ularda isitma



ko'tariladi, butun a'zoi badani og'rib, yuragi ham zararlanadi, qo'l oyoqlari qattiq og'riydi.

**Davolanishi** – qancha erta aniqlansa davolash tezlik bilan davolansa kasallik asorat kam bo'ladi. Praffilaktika uchun hozirgi vaqitda yangi tug'ulgan bola ko'ziga 20% natriy sulfatsidi yoki penitsillinning (50000:1,0 ml) eritmasidan tomizish zarur.

**Difteriya kon'yunktiviti** – Leffer batsilasi qo'zg'atadi. Ko'pinch u ko'zga tomoq, burundan o'tadi. Bunda isitma ko'tariladi va limfa bezlarining og'rib kattalashuvi qatorida va qovoqlar ham shishadi. Taranglashib og'riydi. Qattiq shishkan qovoqlar ostidagi shox pardada modda almashinuvining buzilishi va toksinlarning ta'sirida yallig'lanish paydo bo'ladi. Bunda dona-dona infiltrant paydo boladi. Bazida shox pardadagi yara yorilib endoftalmit, panoftalmit natijasida ko'z nobud bo'ladi. To'g'ri tashxis qo'yish uchun bemorning tamog'i, burni tekshiriladi. Ko'zning zararlanish klinikasiga katta ahamiyat berib kasalning asosiy belgisi, kulrang ko'kimtir parda tekshrish va uni boshqa pnevakok va virusli kon'yuktivitga ham xos bo'lgan yupqa, oqish karakni solishtrib korish zarur.

**Davolanishi** – Difteriyaga qarshi zardobdan Bezredkousuli bilan 600-12000 Tb yuboriladi.

**O'tkir virusli kon'yunktivitlar** – Bular hamma o'tkir kon'yunktivitlar uchun xos simptomlardan tashqari yana bir necha o'ziga xos belgilari bor

- Juda o'tkir va tez yuqadi
- Qovoqlar va ko'z soqqsi shilliq pardasida infiltrant va follikulalar paydo bo'ladi
- Shox pardada ham mayda va yuza joylashgan infiltrant bo'lishi va uning sezgirligi susayishi mumkin
- Ko'pincha quloq oldi limfa bezlari kattalashadi va paypaslaganda og'riydi



➤ Qovoqlar tirqishi chiqindisining juda kamligidir

**Adenovirusli kon'yuktivit** – (faringokon'yuktivit) Bu kon'yuktivitining uch xil belgisi bor. Bel uvshadi, isitma chiqishi, faringit. Bu kasallik 3,5 va 7 serotip adenoviruslar kontakt va havo-tomchi orqali yuqadi. Inkubatsion davri 7-8 kun. Bunda bemor tana harorati ko'tariladi. Tumov belgilari kuzatiladi. Iyak osti bezlari kattalashadi. Kasallik avvalo bir ko'zda boshlanib 2-3 kun orasida ikkinchisiga o'tadi. Qovoqlar shishadi shillimshiq aralash yiring ajralib chiqadi.

**Katar ko'rinishidagi** turi ko'proq uchraydi, kon'yuktivaning qovoq va ko'z soqqasi satgiga o'tadigan joylarda bir oz shish va qizarish bo'ladi va ozroq shillimshiq-yiringli suyuqlik chiqib yengil o'tishi bilan xarakterlanadi. Bu 5-6 kun davom etib, bemor 10-15 kunda tuzalib ketadi

**Pardali ko'rinishi** anchagina kamroq uchraydi. Pardachasi nozik, oq-kulrang bo'lib, tortganda o'rnidan beozor ko'chaveradi. Difteriyadan farqi rangi ko'kimtir bo'lmaydi. Lekin bazida bir oz qanashi mumkin. Bunda shox pardada mayda-mayda nuqta shaklidagi infiltrat paydo bo'ladi va tez so'rilib ketadi.

**Folikullali ko'rinishida** – Kon'yuktivaning to'g'ay va ko'z soqqasiga o'tadigan joyida fallikulalar paydo bo'ladi. Ko'pincha ular mayda-mayda bo'lib, qovoq kon'yuktivasining bir oz qizarib shishgan ichki va tashqi burchagida joylashgan joylashadi.

**Epidemik (virusli) Keratokon'yuktivit** - Ko'pincha katta yoshli odamlarga yuqadi. Odamdan odamga umumiy ishlatilgan buyumlar va zararlangan ko'z tomchisi va tomizgichlari orqali yuqadi. Qo'lni sovunlab yuvmagan tibbiy hamshira va boshqa insonlardan yuqishi mumkin va butun bir oila a'zolariga yuqadi. Kasallik tumovga o'xshab sovuq tushgan faslda tez tez vaqt ichida boshlanib, bemor ko'zida halaqit, yoshlanish, qizarish seziladi, ozroq shillimshiq yiring chiqadi. Paski qovoqning shilliq pardasida va uning ko'z soqqasiga o'tar joyda ko'p mayda-mayda tiniq va qizg'ish follikulalar paydo



bo'ladi. Quloq oldi va iyak osti limfa bezlari kattalashadi, og'riydi. Bemorda bosh og'riq kuzatiladi. Biron haftadan song umumiy ahvoli yaxshilanib shox pardada mayda-mayda xiralashish nuqtalari paydo bo'lishi, ko'z yoshi oqshi, ko'z qamashuvi bilan boshlanadi. Shox pardaning sezgirligi kmayadi. Bu holat 1-2 hafta davom etib, 7-8 haftadan keyin asoratlarsiz tuzalib ketadi va immunitet qolldiradi.

**Profilaktikasi.** Shu kasallikni yuqtirgan kasallarni va u bilan birga bo'lgan odamlarni boshqalardan ajratish, ularni davolash uchun ishlatiladigan asbob uskunalarni ayrim saqlab, yaxshilab sterilash lozim. Tibbiy xodimlar shaxsiy gigiyena qoidalariga juda qattiq e'tibor berishlari kerak. Sochiq va idishlarni alohida qilishi kerak.

### **Surunkalli kon'yunktivitlar**

**Angulyar blefarokon'yunktivit** Ko'pincha erkaklarda uchraydi. Bu kasallikni diplobatsilla qo'zg'atadi. ko'z shilliq pardasi, qovoqlarning chakka tomondagi burchaklari terisi va kiprikli qirrasining surunkali yalig'lanishidir. Bu kasallikda ko'z juda achishadi, qichishadi bemor chiday olmay qovoqlar chakka tomonda terisida mayda-mayda yorilishlar va ishqalanish paydo bo'ladi. Bu burchakda qaymoqqa o'xshash oppoq modda paydo bo'lib, u paxta bilan artganda ipga o'xshab cho'ziladi. o'z vaqtida aniqlab davolanmasa kasallik oylab yillab davom etib natijada qovoq kiprik qiralari ham qizarib shishadi.

**Allergik va autoimmun kon'yunktivitlar** Kelib chiqishi ikkita sababi bor. Tashqi muhit omillari ekzogen va organizimdagi modda almashinuvda paydo bo'ladigan nomutanosib jarayonlar yoki infeksiya toksinlari ta'siri endogen tasirdir.

**Ekzogen bahor kon'yunktiviti** ilk bahorda o'ta sezuvchanlikdan boshlanadi. Bunga quyoshning ultra binafsha nurlarning sochishi, havoda changlar paydo bo'lishi sabab bo'ladi. Bizning o'lkamizda ko'pincha yosh va



o'spirin bolalarda paydo bo'ladi. Ko'z qichishadi, yoshlanadi va yumlib qolaveradi.

**Xulosa** - Ko'z yuqumli kasalliklari oldini olish uzun baxor va kuz fasillarida shifoxonalarga borganimizda extiyot bo'lishimiz lozim bu kasalik havo tomchi yo'llari orqali yuqadi. Vaqtida davolanmasa ko'zda tuman holati kuzatiladi. Kasalangan insonlar bilan kankatda bo'lmasligimiz lozim. ko'zlari qizargan insonlar bilan qo'l berib ko'rishmaslik lozim. Ko'rishgan taqdirda ham qo'larni darxol antiseptik vositalar bilan tozalash lozim. Oilangizda kasalangan bemorlar bor bo'lsa sochiq va idish tovoqlarini alohida qilish lozim. Agar ko'zingizda qizarish yoki yiringli ajralma kuzatilsa darxol shifokorga murojat qilish lozim. Aks holda bu juda yomon asoratlarga olib keladi. Inson hayotiga jiddiy haf tug'diradi. Kichkina yosh bolalarga juda etiborli bo'lish lozim. Qo'llarni tez-tezdan sovunli suvda yuvish va qo'llaringiz bilan iloji boricha ko'zingizni ushlamasligingiz lozim. Ayollar boshqa ayollarning kasketika maxsultini foydalanmasligi ko'zlariga surtuvchi tush va ten vositalarini o'zidan boshqa insonlar ishlatishiga yo'l qo'ymasligi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Oftalmologiya darslik . Yangiyeva N,R BuzrukovB,T Zakirxodjayev B,T 2023-yil
2. Oftalmologiya. Muxamadiyev R,O 2023- yil
3. Ko'z kasalliklari Hamidova M,H Boltayeva Z,Q 2006
4. Hikmatulla Ne'matullayevich „ Ko'z grippi xavflimi “
5. Hikmatulla Ne'matullayevich „ Ko'zni zararlovchi yuqumli virus“
6. Oftalmologiya darslik Bilalov E,N.